

Inklyuziv ta'limning jamiyatda tutgan o'rni

Xadichabonu Shokirjon-qizi Shavkatova

xadichabonushavkatova5@gmail.com

Ilmiy rahbar: N.B.Goipova

NamDPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, mohiyati, dolzarbligi, ta'limdagi va jamiyatdagi o'rni keng yoritilgan. Unda alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va ularga sifatli ta'lim berish zarurati ta'kidlanadi. Inklyuziv ta'lim yondashuvi orqali jamiyatda tenglik, ijtimoiy integratsiya va bag'rikenglik rivoj topadi. Maqolada shuningdek, diffekti bor bolalar va shaxslarni korreksiya qilish haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, integratsiya, korreksiya, ijtimoiy muhit, logoped, psixolog, defektolog, ruhiyat, individual ta'lim yondashuvi, ota-ona ko'magi

The role of inclusive education in society

Khadichabonu Shokirjon-kizi Shavkatova

khadichabonushavkatova5@gmail.com

Scientific supervisor: N.B.Goipova

NamSPI

Abstract: This article broadly covers the concept, essence, relevance, and role of inclusive education in education and society. It emphasizes the need to integrate children with special needs into the general education process and provide them with quality education. Through an inclusive education approach, equality, social integration, and tolerance are developed in society. The article also covers information about the correction of children and individuals with disabilities.

Keywords: inclusive education, integration, correction, social environment, speech therapist, psychologist, defectologist, psychology, individual educational approach, parental support

Inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olib, teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. U bolalarning ijtimoiy, psixologik va akademik rivojlanishini ta'minlaydi hamda jamiyatda tenglik va bag'rikenglikni rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lim - bu maxsus ehtiyojli bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qitish emas, balki ta'lim tizimini har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirishdir. Bu jarayon ta'lim mazmunini, metodlarini va maktab muhitini barcha bolalar uchun qulay qilib o'zgartirishni talab etadi. Jamiyatdagi nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning bugungi kundagi o'rni bu zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb va muhim yo'nalishlaridan biridir. inklyuziv ta'lim bugungi kunda eng muhim pedagogik tamoyillardan biriga aylangan. U har bir bolaga, xoh jismoniy, xoh intellektual, xoh ijtimoiy ehtiyojidan qat'i nazar, ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi. Inklyuziv ta'lim bu shunchaki o'zgacha ehtiyojli bolalarni maktabga kiritish emas, balki ularga moslashtirilgan, qulay va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishdir. Inklyuziv ta'limning mohiyati shundaki, ta'lim olish jarayonida barcha bolalarning o'ziga xos hislatlarini hurmat qilgan holda boshqa sog'lom bolalar bilan ta'lim olish jarayoni demakdir. Bunda har bir pedagog individual yondashuvni qo'llaydi, maktab infratuzilmasi va o'quv metodikasi hamma bolalarga moslashtiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida va maktabada boladagi ulgurmovchilikning oldini olish, bartaraf etish shakl va usullari, ixtisoslashtirilgan ta'limga jalb etiladigan bolalarni saralash, tashxis qo'yish, tibbiy-pedagogik, kasb-hunarga yo'naltiruvchi tashxis markazi yaratiladi. Inklyuziv ta'limning bu darajada omallashgani har kimning e'tiborini tortadi.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim dolzarbligi shundaki millionlab bolalar ijtimoiy holati, nogironligi sabab sifatli ta'lim olishdan mahrum bo'lmoqdalar. O'zbekiston respublikasi ham bu muammoga yechim topish yo'lida astoydil ishga kirishgan. Misol uchun ta'limni rivojlantirish strategiyasida inklyuziv ta'lim tamoyillarini ham ilgari surmoqda.

Ayrim bo'g'cha va maktablarda inklyuziv ta'lim shaklini kiritib ham bo'lindi. Maxsus ta'limning afzalliklari jamiyatdagi nogiron bolalar o'zaro hurmat, bag'rikenglik, empatiya tuyg'usi rivojlanadi. Jamiyatda ijtimoiy integratsiya, ijobiy ijtimoiy muhit shakllanadi. Ta'lim jarayonida sifatli, moslashuvchan va insonparvar yondashuv kuchayadi. Inklyuziv ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'ri va ro'li juda muhim.

Bu Inklyuziv ta'limda psixolog, defektolog, logoped, pedagog kabi mutaxassislarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Bu mutaxassislar o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlaydi va oilalar bilan hamkorlik qiladi. Pedagoglar ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning

imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish; jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir. Yuqoridagi vazifalarni to'laqonli amalga oshirishda eng birinchi galda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Imkoniyati cheklangan bola ham barcha sog'lom bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Bola, u qanday holatda va qanday imkoniyatga ega bulishidan qat'iy nazar har doim kattalar yordamiga muhtojdir. Biroq bunday tushunchalar bu kabi bolalar ruhiyatini tushiradi, jamiyatdan uzoqlashtiradi. Shuning uchun ba'zi bolalar o'z-o'zi bog'lanib hech kim bilan suhbatlashishmaydi, o'ynamaydilar, birga vaqt o'tkazmaydilar. Bu kabi holatlar ota-onalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar me'yorda rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tez va to'g'ri bajara olmaydilar. Albatta ular doimiy ravishda ota-onalari, ustozlari yordamiga muhtoj bo'ladilar. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashiladi. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarda ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyilari shundan iborati: korreksion yo'naltirilganligi; nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologik-pedagogik) yondoshuv; nuqsonli funktsiyani erta aniqlab, tibbiy-psixologik jihatdan korreksiyalash; umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish; differensial-tabaqalashtirish va alohida yondoshish; ta'limning uzliksizligini ta'minlash kabilardir.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda inklyuziv ta'limning jamiyatdagi o'rni oshib bormoqda. Ushbu ta'lim tizimi har bir bolaga u qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'i nazar sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim sohasining rivojlanishiga, balki jamiyatda tenglik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim bu shunchaki pedagogik yondashuv emas, balki har bir insonning or-nomusi va huquqlarini e'tirof etish demakdir. Bu tizim orqali nafaqat nogiron bolalar, balki barcha o'quvchilar insoniylik, tenglik, hamjihatlik kabi qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shunday ekan, inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash - jamiyatni yanada adolatli, tolerant va barqaror taraqqiyotga yo'naltirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goipova, N. B. Q., & Meliboyeva, Y. E. Q. (2025). Nutq rivojlanishining buzilishlari va ularning sabablari. *Science and Education*, 6(5), 374-381.
2. Anatolievna, R. R. (2023). On the importance of sensory education in infancy. *Journal of Advanced Scientific Research* (ISSN: 0976-9595), 3(2).
3. Olimjonovna, R. Z., & Xusnatilla o'g'li, N. Q. (2025). O 'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA BOILOGIK VA IJTIMOIIY OMILLARNING TA'SIRI. *Научный Импульс*, 3(33), 30-33.
4. Goipova, N. B. (2024). Inklyuziv ta'lim. *Gospital pedagogika: darslik*. Namangan, 252.
5. Rustamova, G. X. Q. (2025). Noto 'liq oilaning jamiyatdagi o 'rni va psixologik ta'siri. *Science and Education*, 6(4), 265-269.
6. Рената Анатольевна Рафикова Анализ преимуществ и ограничений методологии STEMобразования // *Science and Education*. 2025. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-preimuschestv-i-ogranicheniy-metodologii-stemobrazovaniya> (дата обращения: 09.01.2026).
7. Olimjonovna, R. Z. (2025). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA AXLOQIIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI HAQIDA QARASHLARI. ZAMONAVIIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 8(82), 133-136.
8. Goipova, N. B. Q., & Tursunaliyeva, M. U. B. Q. (2025). Bolalar nutqida sintaktik mexanizmlarning shakllanishi. *Science and Education*, 6(5), 340-344.
9. Rustamova, G. Z. X. Q., & Dilshoda, T. U. (2025). Keksalarni yosh chegaralari psixologik muammo sifatida. *Science and Education*, 6(5), 356-361.
10. Goipova, N. B., & Erkinova, M. M. Q. (2025). Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko 'rishning ahamiyati. *Science and Education*, 6(6), 741-744.
11. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTSIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(41), 452-458.
12. Goipova, N. B. Q., & Uraimjonova, Z. I. Q. (2025). Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. *Science and Education*, 6(5), 387-392.